



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

**KORXONALARDA MOLIYAVIY RESURLAR TAQSIMOTINING ZAMONAVIY
USULLARI**

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В
ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**MODERN METHODS OF DISTRIBUTION OF FINANCIAL RESOURCES IN
ENTERPRISES**

Gulimboyev Sindor In’omjon o’g’li

O‘zbekiston Milliy Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va moliyaviy texnologiyalar
yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: O‘zMU, Moliya va kredit kafedrası mudiri
i.f.d., professor **X.X.Rejapov**
ORSID: 0000-0001-5403-9400

Annotatsiya

Ushbu maqola hozirgi global iqtisodiy sharoitda korxonalarda moliyaviy resurslarni samarali va maqsadga muvofiq taqsimlash muammosini o‘rganadi. Maqolada zamonaviy texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot tamoyillari va innovatsion yondashuvlar asosida moliyaviy resurslarni boshqarish tizimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, Enterprise Resource Planning(ERP) tizimlari, ESG(Environmental, Social, Governance) yondashuvi, innovatsion loyihalarni moliyalashtirish va resurs tejamkorligiga yo‘naltirilgan taqsimot kabi yo‘nalishlarning afzalliklari va kamchiliklari, ularni joriy etishning amaliy imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Moliyaviy resurslar, Raqamlashtirish, Sun’iy intellekt, ESG yondashuvi, Innovatsion loyihalar, ERP tizimi, Resurs tejamkorligi.

Эта статья исследует проблему эффективного и целесообразного распределения финансовых ресурсов в предприятиях в современных глобальных экономических условиях. В статье анализируются системы управления финансовыми ресурсами на основе современных технологий, принципов "зеленой" экономики и инновационных подходов. Также рассматриваются преимущества и недостатки таких направлений, как цифровизация, искусственный интеллект, Планирование ресурсов предприятия(ППП)-системы, ЭКС(экологическое, социальное, корпоративное управление)-подход, финансирование инновационных проектов и распределение, ориентированное на экономию ресурсов, а также практические возможности их внедрения.

Ключевые слова. Финансовые ресурсы, Цифровизация, Искусственный интеллект, ESG подход, Инновационные проекты, ERP система, Эффективность использования ресурсов.

This article studies the problem of allocating financial resources efficiently and purposefully in enterprises in the current global economic conditions. The article analyzes financial resource management systems based on modern technologies, the principles of the 'green' economy, and innovative approaches. It also examines the advantages and disadvantages of directions such as digitalization, artificial intelligence, ERP systems, the ESG approach, financing of innovative projects, and allocation aimed at resource efficiency, as well as the practical possibilities of their implementation.

Keywords. Financial resources, Digitalization, Artificial Intelligence, ESG approach, Innovative projects, ERP system, Resource efficiency.

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda korxonalarda moliyaviy resurslarni samarali va to‘g‘ri taqsimlash asosiy muammolardan biri bo‘lmoqda. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, raqobatning yildan-yilga kuchayishi va ishlab chiqarish resurslarining cheklanganligi korxonalardagi moliyaviy resurslar taqsimotining yangi bosqichga o‘tishini taqozo qilmoqda. Shu sababli, moliyaviy resurslarni taqsimlashda zamonaviy texnologiyalar, “yashil” iqtisodiyot tamoyillari va innovatsion yondashuvlardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi.

Moliyaviy resurslar taqsimoti-korxona ixtiyoridagi pul mablag‘larini turli faoliyat yo‘nalishlari orasida samarali taqsimlash jarayonidir. Uning asosiy maqsadi-minimal xarajatdan foydalanib, maksimal foyda olishdir. Undan tashqari, resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlashdir. Nazariy jihatdan bu jarayon samaradorlik, muvozanat va strategik rejalashtirish tamoyillariga asoslanadi.

Ushbu zamonaviy yo‘nalishlarni rivojlantirish borasida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bir qator farmon va qarorlari mavjud. Jumladan, 14-oktyabr 2024-yildagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli qarori tasdiqlandi. Qaror orqali “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini ijtimoiy soha va iqtisodiyotda keng joriy etish, ilmiy-tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish” [1] vazifalari belgilangan. Ushbu qaror natijasida, korxonalarda moliyaviy qarorlarni avtomatlashtirish, risklarni oldindan prognoz qilish, resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-dekabr 2022-yildagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarori imzolandi. Qarorda “Energiya tejankor texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks vazifalar belgilangan. Shuningdek, transport, sanoat va qishloq xo‘jaligida ekologik standartlarni joriy etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va “yashil” investitsiyalarni jalb qilish” [2] ko‘zda tutilgan. Ushbu qaror natijasida korxonalar ishlab chiqarish va energiya resurslarini tejashga majbur bo‘ladi, moliyaviy resurslarni ekologik loyihalarga yo‘naltirishni talab qiladi. Bu esa korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy modelini shakllantiradi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-oktyabr 2020-yildagi “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni tasdiqlandi. Farmonda “Davlat xizmatlarini elektron shaklga o‘tkazish, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, internet qamrovini kengaytirish, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar texnologiyalarini joriy etish, ta‘lim tizimini raqamli asosda modernizatsiya qilish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish” [3] vazifalari belgilangan. Ushbu farmon natijasida, korxonalar moliyaviy resurslarni innovatsion investitsiyalarga, startaplarga va zamonaviy texnologiyalarga yo‘naltirishi mumkin bo‘ladi.

Ushbu zamonaviy yo‘nalishlar borasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, xorijlik olimlardan Ririn Riani o‘zining “Artificial Intelligence (AI) in the Financial Sector” nomli ilmiy ishida “AI moliyaviy resurslarni tez va aniq taqsimlashini, an‘anaviy usullardan ancha samarali” [4] ekanligini ta‘kidlagan. Farman Ali, Anu Sayal, Pradeep Suri va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan “The emergence of green finance: a conceptual framework” nomli ilmiy ishda “Yashil moliyaning barqaror rivojlanishga ta‘sir qilishi va investorlar qarorining ekologiyaga ta‘sir qilishi” [5] tahlil qilingan.


Thomas Puschmann o‘zining “Fintech” nomli ilmiy ishida “Moliyaviy resurslar taqsimotida raqamlashtirishning muhim ahamiyatga egaligini” [6] tahlil qilgan va ochib bergan.

Korxonalardagi moliyaviy resurslar taqsimlanishining zamonaviy yo‘nalishlarining afzalliklari va kamchiliklari to‘xtalsak:

Ushbu yo‘nalish moliyaviy jarayonlarni ya‘ni hisob-kitob, byudjetlashtirish va shu kabi boshqa amallarni maxsus dasturlar orqali avtomatik amalga oshirish tushuniladi. Raqamlashtirish dasturlaridan eng keng foydalaniladigan dasturlardan biri-Enterprise Resource Planning(ERP) tizimidir. ERP-bu korxonaning barcha resurslari ya‘ni moliyaviy, moddiy, insoniy resurslarni yagona

tizim orqali boshqarish imkonini beruvchi dasturiy platformadir. Ushbu platformada hamma ma'lumotlar bitta joyda jamlanadi. ERP bir nechta modullardan iborat bo'ladi va ular quyidagicha: Moliyaviy boshqaruv; Ishlab chiqarish; Sotuv va mijozlar; Kadrlar; Ombor va logistikadir. SAP ERP, Oracle ERP kabi mashhur tizimlari mavjud. ERP tizimidan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud: Barcha ma'lumotlar bir joyda jamlanadi, qaror qabul qilish tez va aniq amalga oshiriladi, xarajatlar kamayadi va shaffoflik oshadi. Shu bilan bir qatorda, bir qancha kamchiliklari ham mavjud: Ushbu tizim qimmat hisoblanadi va joriy qilish katta mablag' talab qiladi. Undan tashqari tizim qiyin, o'rganish murakkab bo'ladi.

Sun'iy intellekt yordamida moliyaviy qarorlar qabul qilish, riskni boshqarish, rejalashtirish va prognoz qilish amalga oshiriladi. Buning natijasida, yuqori aniqlikdagi prognoz, eng samarali investitsiya yo'nalishini aniqlash va risklarni to'g'ri baholash orqali yuqori foydaga erishiladi. Lekin ushbu tizimda bir qancha kamchiliklar ham mavjud: Ushbu jarayonlarni amalga oshirish va baholash uchun sifatli data talab qilinadi. Ayni paytda O'zbekistonda sifatli va katta datalarning kamligi ushbu tizimdan to'liq foydalanishni cheklab qo'yishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, sun'iy intellekt endi rivojlanayotgan tizim bo'lib, ushbu tizimda malakali mutaxassislar kam.



1-rasm. Korxonalarda sun'iy intellektdan foydalanish dinamikasi [7]

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, global miqyosda korxonalarda sun'iy intellektdan foydalanish 2017-yildan boshlab barqaror o'sib borgan va 2025-yilga kelib juda yuqori darajaga yetgan. Ayniqsa, 2023-yildan keyin keskin o'sish kuzatiladi, bu generativ AI texnologiyalarining ommalashuvi bilan bog'liq.

Generativ sun'iy intellekt esa juda qisqa vaqt ichida tez rivojlanib, korxonalarda keng joriy etilayotganini ko'rsatadi. Bu esa zamonaviy biznesda AI strategik ahamiyat kasb etayotganini bildiradi.

Ushbu tizimning asosiy maqsadi-moliyaviy resurslarni va ortiqcha xarajatlarni kamaytirish orqali samaradorlikka erishishdir. Ushbu tizim quyidagicha amalga oshiriladi: Resurslar va xarajatlar tahlil qilinib, eng samarali yo'nalishlarga sarmoya kiritiladi. Bundan tashqari, tejamkor texnologiyalarga investitsiya qilinadi. Ushbu tizim orqali, xarajatlar kamayadi, foyda ortadi, resurslar tejab ishlatiladi va raqobatbardoshlik oshadi. Shuningdek, ushbu tizimda bir nechta kamchiliklar ham mavjuddir: Noto'g'ri optimallashtirish ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirishi mumkin, undan tashqari ushbu tizimning natijasi qisqa muddatda namoyon bo'lmaydi.

Ushbu tizimda boshqa davlatlardagi ilg'or moliyaviy boshqaruv modellaridan foydalaniladi. Ushbu tizimda korxona samaradorligi tez oshadi, tayyor modeldan foydalanadi va global standartlarga javob beradi. Ushbu tizimning asosiy kamchiligi-xorijiy modellar har doim ham mahalliy sharoitga mos kelavermaydi.

Ushbu tizimda yangi va zamonaviy texnologiyalarga, undan tashqari startaplarga sarmoyalar kiritiladi. Ushbu tizim orqali raqobatbardoshlik oshadi, yangi bozorlar vujudga keladi va yuqori daromad manbai paydo bo‘ladi. Lekin, ushbu tizimning asosiy kamchiligi-risk juda ham yuqori bo‘ladi, har bir loyiha muvaffaqiyatli bo‘lavermaydi.

Ushbu tizim orqali moliyaviy qarorlar qabul qilishda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillari hisobga olinadi. Ushbu tizimda ma’lum bir strategiya belgilab olinadi va amalga oshiriladi. Ushbu tizim korxona uchun uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi. Ushbu tizim xalqaro tizim bo‘lganligi sababli, jahon bozorida korxonaning obro‘cini oshiradi, mahalliy va xorijiy investorlarning ishonchini oshiradi. Ushbu tizimning kamchiligi, joriy etish murakkab, qo‘shimcha xarajatlar talab qiladi va natijasi uzoq muddatda ko‘rinadi.

1-jadval

Zamonaviy yo‘nalishlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari [8]

№	Yo‘nalish	Asosiy ko‘rsatkich	Natija (%)	Manba
1	Raqamlashtirish	Operatsion xarajatlarni kamaytirish	20–30%	McKinsey & Company
2	Sun’iy intellekt (AI)	Samaradorlikni oshirish	40% gacha	PwC
3	ESG yondashuvi	Kapital qiymatini kamaytirish	10% gacha	World Bank
4	Risk-menejment	Yo‘qotishlarni kamaytirish	30–40%	Deloitte
5	Innovatsiya	Daromad o‘sishi	15–25%	OECD

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, yuqoridagi zamonaviy yo‘nalishlardan to‘g‘ri va maqsadga muvofiq foydalanilsa, vaqt o‘tishi bilan yuqori foydaga olib chiqadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlari korxonalarda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, ESG yondashuvi, innovatsiya va tejamkor ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlar korxona faoliyatini optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishga yordam beradi.

Ushbu zamonaviy yo‘nalishlarni joriy qilish orqali korxonalar o‘z faoliyatini tizimli ravishda takomillashtiradi, moliyaviy resurslarni maqsadli taqsimlaydi va uzoq muddatli barqaror rivojlanish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, bu yo‘nalishlar korxona samaradorligini oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishning asosiy vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14-oktyabr 2024-yildagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-358-sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2-dekabr 2022-yildagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-oktyabr 2020-yildagi “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni
4. Jo‘rayev U.(2025). Korxonalarning moliyaviy mustaqilligini tahlil qilishda xorij tajribasining ustuvor jihatlar. Iqtisodiyot va turizm.

5. Xalilova A.(2026). Korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot.
6. Th.Puschmann(2017).Fintech. /scholar.google.com/
7. R.Riani(2023).Artificial Intelligence in the Financial Sector. /journals.smartinsight.id.
8. F.Ali,A.Sayal,P. Suri and others. The emergence of green finance: a conceptual framework. f1000research.com/articles

UDK: 336.1/5

MOLIYAVIY TIZIMNING XIZMATLAR SOHALARI VA BO‘G‘INLARI

СФЕРЫ УСЛУГ И ЭЛЕМЕНТЫ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ

SERVICE AREAS AND ELEMENTS OF THE FINANCIAL SYSTEM

Ibodov Jamshid Qo‘yli o‘g‘li

G‘uzor tuman Iqtisodiyot va moliya, Bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya

Maqolada moliyaviy tizimning sohalari va bo‘g‘inlari tahlil qilingan. Moliyaviy tizim davlat moliyasi va xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasi sohalariga bo‘linadi. Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti, tijorat va notijorat tashkilotlari moliyasi kabi bo‘g‘inlar yoritilgan. Notijorat tashkilotlarni moliyalashtirish manbalari va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash shakllari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy tizim, davlat moliyasi, byudjet, byudjetdan tashqari fondlar, davlat krediti, notijorat tashkilotlar.

В статье проанализированы сферы и звенья финансовой системы. Финансовая система подразделяется на сферы государственных финансов и финансов хозяйствующих субъектов. Освещены такие звенья, как государственный бюджет, внебюджетные фонды, государственный кредит, финансы коммерческих и некоммерческих организаций. Показаны источники финансирования некоммерческих организаций и формы государственной поддержки.

Ключевые слова: финансовая система, государственные финансы, бюджет, внебюджетные фонды, государственный кредит, некоммерческие организации.

The article analyzes the spheres and components of the financial system. The financial system is divided into public finance and finance of economic entities. Components such as the state budget, extra-budgetary funds, state credit, and finance of commercial and non-profit organizations are highlighted. Sources of financing for non-profit organizations and forms of state support are shown.

Keywords: financial system, public finance, budget, extra-budgetary funds, state credit, non-profit organizations.

Faoliyat jarayonida turli pul fondlari(dan) shakllanadigan va foydalaniladigan moliyaviy munosabatlar turli sohalarining majmui moliyaviy tizim deyiladi. Unga boshqacha ham ta’rif berish mumkin: davlat va korxonalarining pul fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish borasidagi shakl va metodlar tizimiga moliyaviy tizim deyiladi. Unga yana quyida ta’rifni ham berish mumkin: xo‘jalik subyektlari, uy xo‘jaliklari, davlat va maxsus moliya institutlarining pul mablag‘larini taqsimlaydigan va ishlatadigan moliya munosabatlarning bir-biri bilan bog‘liq va birgalikda harakat qiladigan kategoriyalari, bo‘g‘inlari va sohalarining yig‘indisi moliyaviy tizim deyiladi”.

Metodologiya